

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHBEKOV A'ZAMKUL ANORBOYEVICH**

**SHISHALARDA ION ALMASHINISH HODISALARI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Fizika-matematika fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc)  
Avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата  
диссертации доктора (DSc) по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract  
of the doctor (DSc) on physical and mathematical sciences**

<b>Eshbekov A'zamkul Anorboyevich</b> Shishalarda ion almashinish hodisalari.....	3
<b>Эшбеков Аъзамкул Анорбоевич</b> Ионообменные явления в стеклах .....	29
<b>Eshbekov Azamkul Anorboyevich</b> Ion exchange phenomena in glasses .....	55
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works .....	60

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHBEKOV A'ZAMKUL ANORBOYEVICH**

**SHISHALARDA ION ALMASHINISH HODISALARI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM245 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash vebsahifasi (www.inp.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Nuriddinov Izzatillo**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldashev Nosirjon Xaydarovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Mussayeva Malika Anvarovna**

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Jumayev Mustaqim Rofiyevich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019./FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug‘bek qo‘rg‘oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-18; faks: (+99871) 289- 36-65; e-mail: info@inp.uz

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug‘bek qo‘rg‘oni, YaFI. Tel.: (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Yu.Tashmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi f.-m.f.d., professor

**O.P.Tojiboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy,

kengash ilmiy kotibi

f.-m.f. PhD., katta ilmiy xodim

**E.M.Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi vaqtda butun dunyoda shishalar va shishasimon birikmalar olishning yangi noan'anaviy past haroratli usullarini ishlab chiqish alohida qiziqish uyg'otmoqda. Bunga misol sifatida shishalar va ko'rsatilgan birikmalarning diffuziyaga asoslangan past haroratli ion almashinish (PHIA) bilan sintez qilishni keltirish mumkin. Ushbu usulning asl mohiyati shisha matritsasidagi ionlarni tashqi manba ionlari, odatda eritilgan tuzning ionlari bilan almashinishidir. Ikkinchi usul zol-gel sintezi texnologiyasi bo'lib, zolni olish va keyinchalik uni gelga aylantirishni o'z ichiga oladi, uning asosiy bosqichlari nano o'lchamdagi kolloid zarrachalar va qo'shimchalarni aralashtirish, gel hosil qilish va uni qolipga qo'yishdir.

Bugungi kunda bir tomondan, yorug'lik signallarini uzatishga asoslangan element bazasiga ega eng tezkor kompyuterlar ishlab chiqish uchun PHIA yordamida planar to'lqin o'tkazuvchi qatlamlarini yaratish o'ta dolzarb muammo bo'lib borayotgan bo'lsa, boshqa tomondan zol-gel sintezi yetarlicha katta o'lchamli va murakkab shakldagi materiallar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi paytlarda texnologik jarayonlarida va materiallarning xususiyatlarini maqsadga muvofiq boshqarishda, shu jumladan, ion almashinish usuli bilan olinadigan shishalarning xususiyatlarini o'rganishda, radiatsion ta'sir qilish usullari keng qo'llanilmoqda. Bunda radiatsiya ta'siriga chidamli tarkiblarni sintez qilish hamda yuqori harorat va radiatsiyaning katta dozalarini kompleks qo'llagan holda shishalar strukturasi hamda xususiyatlarini maqsadga muvofiq o'zgartirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Hozirgi paytlarda O'zbekiston Respublikasida xossalari oldindan boshqariladigan yangi materiallar, jumladan, shishasimon birikmalarni izlab topish va ularning xossalari har tomonlama o'rganish sohasidagi fundamental hamda amaliy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqdaki, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli qarorida belgilangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida"<sup>1</sup> nazarda tutilgan chuqur bilim talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi PF-3012-son "Qayta tiklanuvchi energiyani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Past haroratli usullar bilan shishalarni olish va ulardan foydalanishning fundamental va amaliy jihatlari dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi ilmiy markazlar, institutlar va universitetlarda chuqur o'rganilmoqda. Shu jumladan, Yunilever molekulyar fan va informatika markazi, Illinoys universiteti, Arizona universitetining Optika fanlari markazi, Florida universitetining elektrotexnika kafedrası (AQSh), Nippon davlat telegraf va telefon korporatsiyasining tadqiqot laboratoriyalari (Yaponiya), Erlangen-Nyurnberg universiteti Fizika instituti Optika o'quv markazi, Karlsrue texnologiya institutining Nanotexnologiya instituti, (Germaniya), Kembrij universiteti, London universiteti kolleji (Buyuk Britaniya), Strasburg universiteti (Fransiya), Boloniya universiteti, Yadro fizikasi milliy instituti (Italiya), Uilfrid Lorye universiteti, Britaniya Kolumbiyasi universiteti (Kanada), Sileziya Texnika universitetining Optoelektronika kafedrası (Polsha), Sharq universiteti (Finlyandiya), Aalto universitetining fan va texnologiya maktabi, Xubey, Chanchun fizika instituti (Xitoy), Nanyan texnologiya universiteti (Singapur), "S.V.Vavilov nomidagi Davlat optika instituti Ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi" AJ, Axborot texnologiyalari, mexanika va optika Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Kimyoviy fizika muammolari instituti, Fanlar akademiyasining Dog'iston ilmiy markazi, Dog'iston davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti (O'zbekiston) va boshqalar.

Zarur xususiyatlarga ega bo'lgan shishasimon materiallarni past haroratli usullarda olish, PHIA va zol-gel usulini qo'llash dunyoning turli ilmiy markazlarida turli kirishmalar kiritilgan keng assortimentli turli xil sanoat shishalarini olishda qo'llanilmoqda, shu tariqa, iqtisodiyotning turli sohalarida, ayniqsa, fotonika va integral optika elementlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan juda moslashuvchan hamda istiqbolli texnologiyadir.

Ayni paytda dunyoning ko'plab mamlakatlarida bir qator ustuvor yo'nalishlar, jumladan, yuqori va past haroratlarda turli xil shishalarni sintez qilishning yuqori samarador laboratoriya hamda sanoat usullarini, shu jumladan, shishasimon materiallarning turli xususiyatlarini, shu jumladan, radiatsion xususiyatlarini texnologik yo'l bilan boshqarish, texnologik jarayonlarda foydalaniladigan hodisalarning fundamental qonuniyatlarini o'rnatish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning II. "Energiya, energiya tejash va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarildi.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Shishasimon materiallar sintezining eksperimental va nazariy masalalari, shishasimon materiallar va ular asosidagi

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy ishlar sharhi: <https://sciencejournals.ru/journal/fizkhst>; <https://www.sciencejournals.ru/journal/orgkhim>; <https://journals.ioffe.ru/journals>; <https://ceramics.org/publications-resources/journals>; <https://link.springer.com/journal>; <https://www.sciencedirect.com/journal/journal-of-food-and-drug-analysis> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

nanosistemalarni o'rganish usullari hamda ularni amaliy qo'llash muammolari bilan dunyoning ko'plab yetakchi olimlari, shu jumladan, rossiyalik (G.T.Petrovskiy, N.V.Nikanorov, S.K.Yevstropov, Yu.A.Zhatkin, V.G.Ilin, V.V.Jurhina, A.I.Sidorov, A.M.Butaev, L.V.Glebov), kanadalik (T.G.Giallorenzl, E.L.West, R.Kirk, R.Glnter, B.A.Andrews), amerikalik (S.S.Kistler, G.Steward, C.A.Millar, P.Madasamy, M.M.Morrell, D.F.Geraghty, S.Honkanen, N.Peyghambarian), belaruslik (O.N.Bilan, N.G.Cherenda), o'zbekistonlik (Sh.A.Vahidov, G.I.Ikromov, I.Nuritdinov, I.X.Isaev, A.N.Salaxitdinov, Sh.K.Salimov, S.S.Qosimova, M.A.Qosimjonov) tadqiqotchilar shug'ullanganlar.

Ular shisha ishlab chiqarishning yuqori haroratli usulidan farqli o'laroq, past haroratli ion almashinuvi sintezi jarayonida shishalar holati uning shakllanishining barcha bosqichlarida muvozanatsiz holatda ekanligini aniqladilar. Shu sababli sintez qilinadigan shishalarning tuzilishi va xususiyatlari texnologik jarayonlarning parametrlaridan kuchli bog'liq bo'ladi.

Shu bilan birga, ba'zi muammolar, xususan, ionlashtiruvchi nurlanishning past haroratli usullar bilan sintez qilingan shishalar tuzilishi va xususiyatlariga ta'siri, ayniqsa, harorat va yuqori dozali ionlashtiruvchi nurlanishning to'liq o'tkazuvchi qatlamlarning hosil bo'lish qonuniyatlariga, ularning issiqlik va radiatsion xarakteristikasiga kompleks ta'siri hal etilmasdan qolmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 236-sonli "Optikaviy materiallarga termoradiatsiyaviy ta'sirini o'rganish" (1991-1995), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining F2-F065+F071 "O'rin almashuvchi va suqilma qattiq eritmalarda issiqlik va radiatsiya bilan stimullangan hodisalar" (2007-2011), Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti "Zamonaviy elektronika ehtiyojlarini qondirish va quyosh energiyasini yuqori FIK bilan elektr energiyasiga aylantiruvchi yangi materiallarni sintez qilish va ularning fizik xossalarini o'rganish" (2022-2025) mavzulari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'rganilayotgan shishalar sintezi va ularda termik hamda termoradiatsiyaviy ishlov berish jarayonida ion almashinadigan qatlamlar, xususi va kirishma nuqson markazlari hosil bo'lish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

$\gamma$ -nurlanish maydoni va yuqori harorat ta'sirida shisha yuzasida ion almashinadigan qatlamlarni sintez qilish usulini ishlab chiqish;

indikatorlar (temir ionlari, germaniy va boshqalar) yordamida past haroratli  $\text{Na}^+_{\text{shisha}} \leftrightarrow \text{K}^+_{\text{eritma}}$  ion almashinuvida turli xil shishalardagi valent-koordinatsiya o'zgarishlarini va ularning ishtirokidagi radiatsiyaviyhodisalarni tajribada tadqiq qilish;

ftorsirkonat shishalarda radiatsiyaviy markazlarni o'rganish va ularning tabiatini aniqlash;

radikallar nuqtai nazaridan radiatsiyaviy markazlarnig hosil bo'lish mexanizmlari haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida an'anaviy yuqori haroratli sintez usuli bilan olingan, shuningdek past haroratli ion almashinuvi hamda zol-gel usulida sintez qilingan kvarts, silikat, germanat, fosfat, ftorsirkonat shishalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib ion almashinuvi va zol-gel sintezida kvarts, silikat, germanat, fosfat va ftorsirkonat shishalarining hosil bo'lish jarayonlari, shuningdek, bu shishalarda xususiy, kirishmaviy va radiatsiyaviy markazlarining hosil bo'lishi qonuniyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** shisha sintezining an'anaviy yuqori haroratli usuli, gamma nurlar maydonida va maydoni ta'sirisiz past haroratli ion almashinuvi, kvarts shishalarining zol-gel sintezi, to'liq tashuvchi modalarning rezonans uyg'atilishi, optikaviy (absorbtsion, foto- va radioluminessensiya), elektron-paramagnit, yadroviy-magnit spektroskopiyalari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

K-8 silikat shishalarida birinchi marta ishqor kationlarining  $\gamma$ -nurlanish maydoni ta'sirida radiatsiya bilan tezlashtirilgan diffuziya hodisasi topildi va tajribalarda radiatsiya bilan stimullashadigan diffuziyadan foydalanib shishalarda ion almashinishi bilan to'liq tashuvchi qatlam hosil bo'lish tezligini oshirish imkoniyati mavjud ekanligi ko'rsatilgan;

ion almashinish jarayonida ishqoriy germanat shishalari tarkibida  $K^+$  kationlari konsentratsiyasining oshishi germanat shishalari to'rining strukturaviy o'zgarishiga olib kelishi, natijada oktaedrda joylashgan germaniy atrofidagi peroksid radikallari soni ko'payishi, tetraedr bilan o'ralgan germaniyda joylashgan  $E_{Ge}^I$ -markazlari soni esa kamayishi aniqlangan;

fosfat shishlarida kumush miqdori past bo'lgan eritmada boradigan ion almashinuv jarayonida ham xuddi yuqori haroratlarda sintez qilingan shishalarda kuzatiladiganiday  $PO_4^{2-}$ ,  $Ag^+$ ,  $Ag^0$ ,  $Ag_2^+$  radiatsiyaviy paramagnet markazlari hosil bo'lishi ko'rsatilgan;

sol-gel usuli va an'anaviy yuqori harorat usuli bilan olingan kvarts shishalari to'rining tuzilishi bir-biriga yaqin ekanligi, bu esa ularning strukturasi bir xildagi xususiy va kirindi radiatsiyaviy markazlar hosil bo'lishiga olib kelishi aniqlangan;

birinchi marta EPR- usuli bilan ftorsirkonat shishalarida kislorod, sirkoniy va ftor bilan bog'liq radiatsiyaviy paramagnit markazlari aniqlangan hamda peroksid radikalining radiatsiyaviy paramagnit markazlarining signallari kislorodli kirindilar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan;

ftorsirkonat shishalarda seziiy ionlarining mavjudligi temir ionlarining bir tekis taqsimlanishiga va ularning uch valentli holatga o'tishiga olib kelishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ishqoriy silikat shishasi asosida shishaga ishqoriy erigan tuzda past haroratli issiqlik bilan ishlov berish yo'li bilan to'liq tashuvchilar olishning yangi usuli ishlab chiqilgan, bunda sindirish ko'rsatkichini, modlar sonini va to'liq tashuvchi qatlamining chuqurligini oshirish uchun issiqlik bilan ishlov berish gamma maydonida amalga oshirilgan;



tarkibiga shisha hosil qiluvchi sifatida fosfor besh oksidi hamda kaliy, kalsiy va alyuminiy kiritilgan fosfat shishasi asosida uzoq muddatli ta'siriga ega shishasimon o'g'it ishlab chiqilgan, u boshqa o'g'itlardan ta'sir qilish muddatini uzaytirish maqsadida tarkibiga qo'shimcha bor, mis, kobalt va rux oksidlari kiritilganligi bilan farq qiladi;

shisha sintez qilish usuli bilan yuqori ishlab chiqarish samaradorligiga ega, mahsulot arzonligini, iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlovchi ametistning sun'iy immitatorini olish usuli ishlab chiqilgan;

gel hosil bo'lish vaqtida qurish jarayonini nazorat qilish maqsadida dastlabki aralashma eritmasiga formamid va ammiakli suvni kiritish bilan tijoratda mavjud bo'lgan K-1 tipidagi silikat zolining 25%li ishqoriy eritmasidan monolit optik materiallarni sintez qilish uchun zol-gel usuli ishlab chiqilgan; bunda olingan gel 20-60 °C haroratda konvektiv quritilgan, katta o'lchamli monolit kserogellar olish uchun yakuniy bosqichda monolit namunani g'ovak SiO<sub>2</sub> kukunida quritish uslubidan foydalanilgan;

zol-gel usuli bilan sintez qilingan monolit kserogellarni (silikagellarni) ~1000 °C gacha qizdirish orqali nuqsonsiz, bir jinsli (umumiy g'ovakligi 60% gacha bo'lgan) kvarts shishalari hamda namlikligi past va o'rtacha diametri ~70 Å bo'lgan g'ovak silikagellar olish mumkinligi ko'rsatilgan;

zol-gel usulida sintez qilingan kvarts shishalarni yuqori harorat va yuqori dozali ionlashtiruvchi nurlanish ta'sirida qayta ishlash xususiy nuqsonlar sonining keskin kamayishiga olib kelishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot mavzusi bo'yicha qo'yilgan vazifalarning fizikaviy asoslanganligi, sinovdan o'tgan zamonaviy absorbsiya, lyuminessensiya, elektron-paramagnit usullaridan foydalanilganligi, tajriba natijalarining katta hajmi va ularning kondensirlangan holat fizikasining asosiy tamoyillari hamda qonunlariga muvofiqligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular past haroratli usullar bilan sintez qilishning texnologik usullari haqida yangi ma'lumotlar, nuqson holatlarining spektral xarakteristikalari va ularning sintez qilingan materiallardagi identifikatsiyalari haqida yangi original ma'lumotlar beradi, ular shishalardagi radiatsiyaviy nuqsonlar paydo bo'lishining va nurlanish bilan kelib chiqadigan jarayonlar qonuniyatlarining to'liqroq tasvirlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oldindan belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan materiallarni olish, ularning nurlanishga chidamliligini oshirish va ushbu materiallar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xususiyatlarini nazorat qilish imkonini berishi bilan aniqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shishalardagi ion almashinish hodisalarini o'rganish bo'yicha ilmiy natijalarga asoslanib:

kremniy oksidi zolidan birjinsli, ko'rish va UB spektral oraliqlarida yuqori shaffofligi bilan xarakterlanadigan monolit g'ovak kserogellar hamda kvarts shishalari olishning imkoniyati xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan (xalqaro ilmiy jurnallardagi havolalar: Glass Physics and Chemistry 2003, 29, 513-

515; Physics and Chemistry, Vol. 30, No. 1, 2004. – P. 107-108; Glass Physics and Chemistry. 2009, Voi. 25, No 1. – P. 181-190; Journal of Materials Science Letters 2000, 19. – P. 37-39). Natijalardan foydalanish texnik jihatdan qimmatli fotofizik, fotokimyoviy va elektrokimyoviy xususiyatlarga ega bo‘lgan organik-noorganik hamda noorganik nanogibridlar va kserogellarni olishning bir qator yangi istiqbolli usullarini ishlab chiqish imkonini bergan;

yuqori g‘ovaklikka ega bo‘lgan kvarts shishalarini sintez qilishning yakuniy bosqichida qo‘llaniladigan monolit silikagellarni konvektiv quritish usuli, ishlab chiqilgan zol-gel sintez usuli va namligi past bo‘lgan nuqsonsiz, bir jinsli silikagellarni ishlab chiqish, umumiy g‘ovakliligi 60% gacha va o‘rtacha diametri ~ 70Å bo‘lgan ilmiy natijalar Samarqand davlat universiteti F-OT-F7-84 “Kimyoviy datchiklarning yangi avlodi uchun gazga sezgir materiallar sintezining nazariy asoslari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023-yil 27-oktyabrdagi 10-5590-sonli xati). Natijalardan foydalanish gazga sezgir materiallarni sintez qilish imkonini bergan;

tavsiya etilgan zol-gel usuli bilan olingan termoradiatsiya usuli bilan ishlov berilgan kvarts shishalari namunalarda nuqsonlar sonining kamaytirishi, sirt qatlamlarining tuzilishi va tarkibini o‘zgartirishiga ta’siri, Samarqand davlat universiteti F-OT-F7-84 “Kimyoviy datchiklarning yangi avlodi uchun gazga sezgir materiallar sintezining nazariy asoslari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida qo‘llanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023-yil 27-oktyabrdagi 10-5590-sonli xati). Natijalardan foydalanish yangi avlod kimyoviy sensorlar uchun sintez qilingan gazga sezgir materiallarning nuqsonlarini kamaytirishga yordam bergan;

boshlang‘ich komponentlar sifatida tijoratda ishlab chiqarilgan K1 kremnezem zolini o‘z ichiga oluvchi suyuqlik aralashmasidan silikagel hosil qilish jarayonini o‘rganish natijalari, formamid va ammoniy gidroksidi NH<sub>4</sub>OH, shuningdek, 12:3:2 komponentlarning hajm nisbati bilan ushbu tizimdagi gellash vaqtining haroratga bog‘liqligi “Optik nanomateriallarni olishning suyuqlik usullari” (Yevstropev S.K., Nikonorov N.V. – Sankt-Peterburg: ITMO universiteti, 2018. – 84 b.) mavzusidagi o‘quv qo‘llanmada foydalanilgan. O‘quv qo‘llanma Rossiya Federatsiyasi oliy ta’lim tizimidagi federal o‘quv-uslubiy birlashma tomonidan 12.00.00 Fotonika, asbobsozlik, optik va biotexnika tizimlari va texnologiyalari bo‘yicha mutaxassisliklar va ta’lim yo‘nalishlarining kengaytirilgan guruhi uchun Oliy ta’lim magistratura dasturlari 12.04.03 “Fotonika va optoinformatika” yo‘nalishi bo‘yicha “Fotonika va optoinformatika nanotexnologiyalarining fizik asoslari” fanini o‘rganishda 2017-yil 05-dekabrdagi 3-sonli bayonnoma bilan tavsiya etilgan;

fosfat shisha asosida uzoq muddatli ta’sirga ega shishasimon o‘g‘it ishlab chiqilgan (SSSR Fan va texnika davlat qo‘mitasi huzuridagi Ixtirolar va kashfiyotlar davlat qo‘mitasi tomonidan №1742276-raqam bilan ro‘yxatga olingan mualliflik huquqi guvohnomasi, 1992-yil 22-fevraldagi №23-sonli byuleten). Bunda o‘g‘itning ta’sirini kuchaytirish va ta’sir muddatini uzaytirish uchun hamda uning

agrokimyoviy xususiyatlarini yaxshilash maqsadida qo‘shimcha ravishda bor, mis, kobalt va rux oksidlari kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 25 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza hamda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 35 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 184 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotlarning respublikada ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan aloqasi ko‘rsatilgan. Muammoni o‘rganish darajasi muhokama qilingan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, obyektlar tanlangan, tadqiqot mavzusi aniqlangan va tadqiqot usullari tavsiflangan. Ilmiy yangilik ta’kidlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati qayd etilgan. Ishning aprobatsiyasi va chop etilgan ilmiy ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Shisha sintezining fizik-kimyoviy xususiyatlari va xossalari”** nomli adabiyotlar sharhiga bag‘ishlangan. Bu bobda shishalarda nurlanish markazlari, elektron-teshik markazlari va radikallar hosil bo‘lishining ayrim jihatlari, temir ionlarining koordinatsiya-valentlik holatlari, tarkibida metallar bo‘lgan shishalarning spektral xossalari va zol-gel sintezi natijasida olingan shishasimon holatlar ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, past haroratlarda ion almashinadigan diffuziya va zol-gel usuli bilan olingan shishalarda strukturaviy relaksatsiya jarayonlari mikrostruktura darajasida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shishasimon materiallarning tuzilishi va xususiyatlariga termoradiatsiyaviy ishlov berishning ta’siri ham yetarlicha o‘rganilmagan. Tajriba ma’lumotlarini tahlil qilish asosida ushbu tadqiqotning aniq masalalari berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari va tajriba metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari va tajriba metodikasi tavsiflangan. Tadqiqot obyektlari sifatida yuqori va past haroratli sintez usullari (PHIA va zol-gel usuli) bilan sintez qilingan oksidli hamda ftorsirkonatli shishalar olingan bo‘lib, ular olingan materiallarda radiatsiyaviy nuqsonlar va to‘lqin o‘tkazuvchanlik xossalari taqqoslash maqsadlarida tanlangan.

Zol-gel sintez usuli – bu shishasimon materiallarni sintez qilish texnologiyasi bo‘lib, u zolni olish va keyin uni gelga aylantirish, ya’ni hosil bo‘lgan fazoviy panjara suyuq dispersiya muhitidan iborat kolloid tizimga aylantirishni o‘z ichiga oladi.

**Ishqoriy-kalsiy-silikat shishalarni sintez qilish.** Shisha sintezi 1500 °C haroratda kvarts tigellarida amalga oshirildi. Sintez jarayonida maxsus tozalik darajasidagi reagentlar ishlatilgan. O‘rganilayotgan shishalarning tarkiblari quyida keltirilgan.

1.  $25 \text{ Na}_2\text{O} + 15 \text{ CaO} + 60 \text{ SiO}_2$
2.  $30 \text{ Na}_2\text{O} + 10 \text{ CaO} + 60 \text{ SiO}_2$
3.  $35 \text{ Na}_2\text{O} + 5 \text{ CaO} + 60 \text{ SiO}_2$
4.  $28 \text{ Na}_2\text{O} + 4 \text{ CaO} + 68 \text{ SiO}_2$

**Ishqoriy-germanatli shishalarni sintez qilish.** Tadqiqotlar uchun ikki turdagi germanat shishalari sintez qilindi: tarkibiga alyuminiyning miqdori doimiy bo‘lgan shisha namunalari (I tarkibidagi shisha namunalari):

1.  $25 \text{ Na}_2\text{O} + 25 \text{ Al}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
2.  $20 \text{ Na}_2\text{O} + 5 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Al}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
3.  $15 \text{ Na}_2\text{O} + 10 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Al}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
4.  $5 \text{ Na}_2\text{O} + 20 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Al}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$

va galliyning miqdori doimiy bo‘lgan shisha namunalari (II tarkibidagi shisha namunalari):

1.  $25 \text{ Na}_2\text{O} + 25 \text{ Ga}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
2.  $20 \text{ Na}_2\text{O} + 5 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Ga}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
3.  $15 \text{ Na}_2\text{O} + 10 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Ga}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$
4.  $5 \text{ Na}_2\text{O} + 20 \text{ K}_2\text{O} + 25 \text{ Ga}_2\text{O}_3 + 50 \text{ GeO}_2$

**Siliko- fosfat shishalar.** Shishalar kvarts tigellarda maxsus toza reagentlardan sintez qilingan, ularning tarkibi quyida mol% hisobida eltirilgan:

1.  $26,23\text{P}_2\text{O}_5 + 12,48\text{SiO}_2 + 19,9\text{Al}_2\text{O}_3 + 3,17\text{B}_2\text{O}_3 + 4,95\text{Na}_2\text{O} + 29,11\text{K}_2\text{O} + 0,5\text{Nd}_2\text{O}_3 + 3,66 \text{ La}_2\text{O}_3$ .
2.  $27,23\text{P}_2\text{O}_5 + 22,95\text{SiO}_2 + 20,66\text{Al}_2\text{O}_3 + 3,29\text{B}_2\text{O}_3 + 5,14\text{Na}_2\text{O} + 30,21\text{K}_2\text{O} + 0,52\text{Nd}_2\text{O}_3$

**Ftorsirkonatli shishaklar.** Shishalar “O‘T” markali metall ftoridlardan CY-2000 markali shishasimon uglerodli tigellarda argon bo‘lgan yopiq hajmda 900 °C haroratda bir soat davomida eritib, keyin inertsiyal sovutilgan holda sintez qilindi. Ftorsirkonat shishalarini ishlab chiqarish uchun tabiiy zirkoniy tarkibiga ega bo‘lgan aralashmalar va  $^{91}\text{Zr}$  magnit yadrolari bilan boyitilgan izotop ishlatilgan. O‘rganilgan ftorsirkonat shishalari quyidagi tarkiblarga ega (mol%):

1.  $60 \text{ ZrF}_4 \cdot 28 \text{ BaF}_2 \cdot 4 \text{ AlF}_3 \cdot 8 \text{ NdF}_3$ .
2.  $58 \text{ ZrF}_4 \cdot 28 \text{ BaF}_2 \cdot 14 \text{ PbF}_2 \cdot 4 \text{ AlF}_3$ .
3.  $51 \text{ ZrF}_4 \cdot 16 \text{ BaF}_2 \cdot 20 \text{ LaF}_3 \cdot 5 \text{ LaF}_3 \cdot 5 \text{ PbF}_2 \cdot 3 \text{ AlF}_3$
4.  $54 \text{ ZrF}_4 \cdot 35 \text{ BaF}_2 \cdot 7 \text{ YF}_3 \cdot 4 \text{ AlF}_3$ .
5.  $57 \text{ ZrF}_4 - 34 \text{ BaF}_2 - 5 \text{ LaF}_3 - 4 \text{ AlF}_3$
6.  $57 \text{ }^{91}\text{ZrF}_4 \cdot 34 \text{ BaF}_2 \cdot 5 \text{ LaF}_3 \cdot 4 \text{ AlF}_3$ .

Temirning konsentratsiyasi turlicha (1-5 mol%) bo'lgan ftorsirkonat shishalar ham sintez qilindi.

**Ishqorli-silikat shishalari.** Shishalar sintezi 1600°C haroratda kvarts tigellarida amalga oshirildi. Sintezda quyidagi reaktivlar ishlatilgan "O'T": SiO<sub>2</sub>, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, KNO<sub>3</sub>. Sintez jarayonida 100 mol% shisha tarkibiga ortiqcha Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qo'shimchalari kiritilgan. O'rganilgan shishalarning tarkiblari 1-jadvalda keltirilgan.

1600 °C haroratda kvarts tigellarida SiO<sub>2</sub>, Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, KNO<sub>3</sub> o'ta toza reagentlardan ishqorli-silikat shishalarining quyidagi tarkiblarda sintez qilingan (sintez jarayonida shisha tarkibiga 100 mol %d an ortiq Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qo'shimchalari kiritilgan) (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Tadqiqot uchun sintez qilingan ishqoriy-silikat shishalarining tarkiblari**

№ shisha	K <sub>2</sub> O mol %	Na <sub>2</sub> O mol %	SiO <sub>2</sub> mol %	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub> mol %
1	-	25	75	6,3·10 <sup>-3</sup>
2	5	20	75	9,3·10 <sup>-3</sup>
3	10	15	75	1,3·10 <sup>-2</sup>
4	15	10	75	9,4·10 <sup>-3</sup>
5	20	5	75	1,3·10 <sup>-2</sup>
6	25	-	75	3·10 <sup>-2</sup>
7	-	25	75	1,2·10 <sup>-2</sup>
8	-	25	75	2,7·10 <sup>-2</sup>
9	-	25	75	1,2·10 <sup>-1</sup>
10	-	25	75	1,2·10 <sup>-1</sup>
11	-	25	75	1,14

**K-8 shishasi.** To'liq o'tkazgich qatlamlarini hosil qilish uchun K-8 tipidagi silikat shishadan 40x10x3 mm o'lchamdagi sayqallangan namunalar va fotoplastinkalardan foydalanilgan, ularga KNO<sub>3</sub> eritmasida 350-500 °C haroratda, quvvati 3000 R/s bo'lgan <sup>60</sup>Co izotopi gamma nurlari maydonida va maydon tashqarisida issiqlik bilan ishlov berilgan. Namunalarning o'lchamlari pechning dizayn o'lchamlari bilan cheklangan.

**O'lchash va nurlantirish uchun tajriba uskunalari.** O'rganilayotgan shishalarda ionlashtiruvchi nurlanish ta'sirida paydo bo'lgan paramagnit yutilishni qayd etish X - diapazonli Radiopan SE/X firmasi tomonidan Yaponiyada ishlab chiqarilgan "JEOL JNM-3" va Rossiyada ishlab chiqarilgan RE-1308 "M" radiospektrometrlarida amalga oshirildi. Massasi 250 mg gacha bo'lgan bo'lak shaklidagi namunalar EPR spektrlari xona haroratida 100 kHz magnit maydon modulyatsiyasi bilan olingan.

Fe<sup>3+</sup> tarkibini aniqlashda o'rtacha nisbiy xatolik taxminan 10%ni tashkil qiladi.

O'lchovlar suyuq azot va xona haroratlarida amalga oshirildi. O'lchovlar uchun shisha namunalari bo'lakchalar shaklida olingan.

Optik yutilish spektrlari  $20 \times 10 \times 1 \text{ mm}^3$  o'lchamdagi shaffof va sayqallangan namunalarda o'lchandi. Spektrlar xona haroratida SF-46 (190-1100 nm oraliqda) va SF-20 (190-2500 nm oraliqda) spektrofotometrilarida qayd etilgan. SF-20 spektrometri uchun o'lchov xatosi standartga nisbatan  $\sim 5\%$  gacha.

#### **Radioluminessensiya va fotoluminesseniyaning yozib olishi.**

Radioluminessensiya "Карл Цейс" SPM-2 spektrografida 300-830 nm spektral oraliqda 0,5-5 nm aniqlik bilan o'lchandi. Kanal haroratida,  $^{60}\text{Co}$  manbaidan  $\sim 3000$  R/s quvvatli gamma nurlari bilan nurlantirildi. Past haroratlarda o'lchash uchun namunalarning maxsus dyuarlarga joylashtirildi va kerakli haroratgacha sovutildi.

Fotoluminessensiya va optik uyg'otish spektrlari "Fica-55" spektrofluorometrida qayd etilgan bo'lib, u spektrni yozib olish moslamasining spektral sezgiriligiga avtomatik moslashtirishni ta'minlaydi. O'lchashlar 4,2; 77; va 300 K haroratda amalga oshirildi.

**Namunalarga termik va termoradiatsiyaviy ishlov berish shartlari.** Optik shishalar faqat nurlanganda paramagnetizmni namoyon qiladi. Shuning uchun Yadro fizikasi institutida namunalarning hovuz tipidagi gamma qurilmasida  $^{60}\text{Co}$  manba gamma nurlari bilan 100, 600, 2000 yoki 5000 R/s quvvatda va  $10^5$  dan  $10^9$  R gacha bo'lgan dozalarda, suyuq azot va nurlantirish kanalining haroratida nurlantirildi. Shishalar, shuningdek, ( $10^{-3}$  Pa) vakuumda kavsharlangan ampulalarda nurlantirilgan. Nurlantirish uchun plastinkalar, shisha bo'laklari, kukun (maydalangan shisha) shaklida namunalarning olinishi.

Eritilgan tuz  $\text{KNO}_3$  va  $\text{AgNO}_3$  qo'shimchalarida termoradiatsiyaviy ishlov berish quyidagi tartibda amalga oshirildi: shishalar eritilgan  $\text{KNO}_3$  yoki  $\text{AgNO}_3$  qo'shimchalari bilan kvarts tigelga solindi. Kerakli haroratgacha qizdirilgan pech  $^{60}\text{Co}$  manba maydoniga tushirildi. Manbaning quvvati 500-5000 R/s. Ishlov berish vaqti 0,5 dan 7 soatgacha. Nurlantirish harorati 350-450 °C. Taqqoslash uchun, maydondan tashqarida namunalarga aynan o'xshash issiqlik bilan ishlov berish parallel ravishda olib borildi.

**To'lqin o'tkazgich xususiyatlarini tajribada aniqlash (Sindirish ko'rsatkichini o'lchash).** Ion almashinishgan planar to'lqin o'tkazgichlar asosida integral optik qurilmalarni qurish uchun to'lqin o'tkazgichning chuqurligi  $n(x)$  bo'yicha sindirish ko'rsatkichining (SK) taqsimlanish funksiyasi ko'rinishi, ya'ni SK profilini bilish kerak. SK – bu to'lqin o'tkazgich modlarini rezonansli uyg'otish usulidir. To'lqin o'tkazgich prizma yordamida uyg'otilgan. Ushbu profilni tajribada aniqlash murakkab masaladir. Ba'zi ko'pmodali to'lqin o'tkazgichlar uchun bu muammo interferometr yoki rentgen mikroanalizi yordamida hal qilinadi.

Ushbu ishda ion almashingan qatlamlarni o'rganish uchun bilvosita buzilmaydigan usul ishlatilgan, bu to'lqin o'tkazgichning modalari spektrini o'lchash va sindirish ko'rsatkichi profilini hisoblash imkonini beradi – bu to'lqin o'tkazgich modlarini rezonansli uyg'otish usulidir.


Effektiv SK ni o'lchash usuli prizmaga kiritish uchun  $\beta_p$  kesish burchagini aniqlashdan iboratdir.

$$n_m = n_p \cdot \sin \left[ P \pm \arcsin \frac{\sin \theta_m}{n_p} \right] \quad (1)$$

bu yerda  $n_m$  – to‘lqin o‘tkazgich modalarining samarali SK ( $m=0, 1, 2$  – modalar raqami);

$n_p$  – prizmaning sindirish ko‘rsatkichi;  $P$  – prizma asosidagi burchak;  $\theta_c$  – to‘lqin o‘tkazgichni rezonans uyg‘otish burchagi.

Shunday qilib,  $n_m$ ni aniqlash uchun prizmaning SK dan tashqari, prizma asosi va kirish qirrasii orasidagi  $P$  burchakni hamda prizmaning kirish qirrasiga  $\theta_c$  tushish burchagini ham bilish kerak. Tajriba o‘tkazish qurilmasi 1-rasmda keltirilgan. Prizmalar kirish va chiqishi TΦ-5 shishasidan yasalgan ( $n_p=1.74971$ ). Prizma kirish burchagi ΓC-5 goniometrida o‘lchandi, prizma asosi va kirish qirrasii orasidagi burchak  $p = 50^{\circ}32'49'' \pm 5''$ .  $\theta_c$  burchakni o‘lchashda xatolik  $\pm 1$  bo‘lib, bu holda effektiv SK ni aniqlashda xatolik  $n_m = \pm 2 \cdot 10^{-4}$  bo‘ldi.



1-bitta modli He-Ne lazer (JIT-52-2),  $\lambda=0,6328$  mkm, 2-polyarizator, 3-diafragma, 4-limbo bilan aylanuvchi stol (strelkalar aylanuvchi stolning mumkin bo‘lgan harakatlarini ko‘rsatadi), 5-ekran, 6-tadqiq qilinadigan planar to‘lqin o‘tkazgich, 7-8- prizmaning kirish va chiqishi

**1-rasm. To‘lqin o‘tkazgich parametrlarini o‘lchash uchun tajriba qurilmasi sxemasi**

**“Silikat va germanat shishalarining ion almashinadigan qatlamlarining xususiyatlarini o‘rganish”** nomli uchinchi bob silikat va germanat shishalarining ion almashinadigan qatlamlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobda erigan  $KNO_3$  tuzda issiqlik bilan ishlov berish jarayonida silikat shishalari K-8da optik sifatgacha sayqallangan to‘lqin o‘tkazgich qatlamlarining hosil bo‘lish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Turli radiusli  $Na^+_{shisha} \leftrightarrow K^+_{eritmali}$  ionlarning almashinishi natijasida shishaning sirt qatlamida mexanik siqilish kuchlanishlari vujudga keldi, bu esa zichlik effekti tufayli to‘lqin o‘tkazuvchi qatlam hosil bo‘lishiga olib keldi.

Gamma maydonida va gamma maydonisiz  $350^{\circ}C$  da  $KNO_3$  erigan tuzda optik sifatgacha sayqallangan K8 shishasiga termik ishlov berish jarayonida  $350^{\circ}C$  dan

boshlab shisha tarkibidagi Na<sup>+</sup> ionlarini eritmadagi K<sup>+</sup> ionlari bilan almashinib, shisha yuzasida to‘lqin o‘tkazuvchi qatlamlar hosil bo‘la boshlaydi (2-3-jadval).

### 2-jadval

**350 °C haroratda eritilgan KNO<sub>3</sub> tuzda issiqlik bilan ishlov berish vaqtiga qarab K-8 shishalarining TM polarizatsiyasining to‘lqin o‘tkazgich modlarining  $\Delta n_o$  sindirish ko‘rsatkichining o‘zgarishi**

Issiqlik bilan ishlov berish vaqti t, soat	To‘lqin o‘tkazgich modlari, $\Delta n \cdot 10^{-4}$					
	$\gamma$ - maydonisiz			$\gamma$ - maydonida		
	TM <sub>0</sub>	TM <sub>1</sub>	TM <sub>2</sub>	TM <sub>0</sub>	TM <sub>1</sub>	TM <sub>2</sub>
1	13	-	-	32	8	-
2	27	-	-	43	18	-
3	34	-	-	51	25	-
4	40	7	-	58	30	11
5	44	10	-	60	33	14
6	45	12	-	62	35	16

### 3-jadval

**Gamma-maydonda va gamma-maydonisiz termik ishlov berish jarayonida K-8 shishasida Na<sup>+</sup><sub>shisha</sub> ↔ K<sup>+</sup><sub>eritma</sub> past haroratli almashinuvi natijasida olingan to‘lqin uzatuvchi qatlamlarning parametrlari**

Harorat T°C	To‘lqin o‘tkazgich modlar soni		Sindirish ko‘rsatkichining $\Delta n_o$ o‘shishi, 3 soatda.		To‘lqin o‘tkazgich qatlam chuqurligi h MKM	
	Gamma maydonida	Gamma maydonisiz	Gamma maydonida	Gamma maydonisiz	Gamma maydonida	Gamma maydonisiz
350	3	2	$50 \cdot 10^{-4}$	$30 \cdot 10^{-4}$	10	5

To‘lqin o‘tkazgich qatlamini shakllantirish jarayonini tezlashtirish va to‘lqin o‘tkazgich modlari sonini ko‘paytirish uchun shishani termik ishlov berish 350 °C da <sup>60</sup>Co gamma maydonida amalga oshirildi (termoradiatsiyaviy ishlov berish). Tajriba natijalari 3-jadvalda ko‘rsatilgan, shundan ma‘lum bo‘ladiki, gamma maydoni to‘lqin o‘tkazgich modlari sonini ko‘paytirishga va  $\Delta n = n_m - n_s$  sindirish ko‘rsatkichi oshirishiga imkon beradi ( $n_s$  – taglikning sindirish ko‘rsatkichi).


Biz birinchi bo‘lib  $\gamma$ -nurlanish ta‘sirida ishqoriy kationlarning o‘zaro diffuziya koeffitsiyentlarining oshishini aniqladik. Silikat shishalarida to‘lqin o‘tkazgich qatlamlarining ion almashinish tezligini oshirish uchun radiatsiya bilan stimulyatsiya qilingan diffuziyadan foydalanish imkoniyati tajribada ko‘rsatildi, ularning xususiyatlarining o‘zgaruvchanlik doirasini kengaytiradi.

Ma‘lumki, shishalardagi Fe<sup>3+</sup> ionlari tetraedr hamda oktaedr koordinatsiyalarda bo‘lishi mumkin. Bunda odatda tetraedr koordinatsiyada joylashgan ionlar EPR spektrlarida g faktor 4,3 ga, oktaedr koordinatsiyadagi ionlar esa g = 2,00 ga teng signal beradi. 2-rasmda dastlabki natriyli (1-egri chiziq) va kaliyli (2-egri chiziq) silikat shishalarning EPR spektrlarining umumiy ko‘rinishi ko‘rsatilgan. Rasmdan




ko‘rinib turibdiki, bu shishalarda  $\text{Fe}^{3+}$  tetraedr va oktaedr koordinatsiya holatida bo‘ladi.

3-rasmda o‘rganilayotgan qator ion almashingan shishalar nisbiy yuzalarining  $\text{K}_2\text{O}$  tarkibiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan bo‘lib,  $\text{Fe}^{3+}$  ionlarining tetraedr (1-egri chiziq) va oktaedr (2-egri chiziq) koordinatsiyasidagi holatining o‘zgarishini tavsiflaydi, unda shishalar tarkibidagi  $\text{K}^+$  ning ortishi bilan  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari ulushining oktaedr koordinatsiyada ortishi va  $\text{Fe}^{3+}$  ulushining tetraedr koordinatsiyada kamayishi kuzatilgan.



**2-rasm. Natriylishisha №1 (spektr 1), kaliylishisha №6 (spektr 3) va  $\text{KNO}_3$  tuz eritmasida ion almashinuvi bilan ishlov berilgan №1 natriylishishadagi  $\text{Fe}^{3+}$  ning EPR spektrlari (spektr 2)**




**3-rasm.  $\text{Fe}^{3+}$  EPR signallarida tetraedr (1) va oktaedr (2) koordinatsiyadagi nisbiy intensivliklarining o‘rganilayotgan qator shishalar tarkibidagi  $\text{K}_2\text{O}$  ga bog‘liqligi**

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tarkibida 25 mol%  $\text{K}_2\text{O}$  bo‘lgan shishalarda nisbiy yuzalar qiymatlari bog‘liqligining umumiy borishidan chetlanish kuzatiladi, bu shisha tarkibidagi temirning yuqori miqdori bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Spektrlar tahlili (4-rasm)  $g = 2.01$  signali topilgan yangi signalning anizotrop qismiga tepalik nuqtasi  $g = 2,148$  atrofida bo‘lishini va nurlanish ta’siri ostida  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari  $g = 2.0$  bo‘lgan signali o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. Tetraedr koordinatsiyasida  $\text{Fe}^{3+}$  ionlariga xos bo‘lgan  $g = 4,3$  signalning intensivligi  $10^6$  R dozadan keyin temir ionlari kam bo‘lgan shishalarda 10 marta, temir ionlari ko‘proq bo‘lgan shishalarda esa bu signal intensivligi biroz pasayadi.  $\text{Fe}^{3+}$  ion signallarining radiatsiya bilan stimulyatsiya qilingan o‘zgarishlar tabiati o‘rganilayotgan barcha shishalarda bir xil, ammo nurlanish ta’sirida ion almashinadigan kaliyli shishalarda bu o‘zgarishlar yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki,  $\gamma$ -kvantlar bilan nurlanish paytida  $\text{Fe}^{3+}$  ionlarining tiklanishi sodir bo‘ladi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, silikat shishalarida ion almashinuvi jarayonlarida, bir tomondan, uch valentli temir ionlarining konfiguratsiya holati o'zgaradi, boshqa tomondan, bo'g'lanmagan kislorod atomlari markazlari ko'payadi, past haroratli ion almashinuvi jarayonida shisha panjarasida kuchli strukturaviy o'zgarishlarning o'tishini ko'rsatadi. Ion almashinuvi usuli yordamida gradient va integral optikaning fotosezuvchan elementlarini yaratishda ushbu hodisani hisobga olish kerak.




1-natriy-silikat shisha №1; 2-3-kaliy-silikat shisha №6, signallar mos ravishda  $10^3$  va  $0,5 \cdot 10^5$  marta kuchaytirilgan holda qayd etilgan; 4-natriyli shisha №1,  $\text{KNO}_3$  da ion almashinuvi bilan ishlov berilgan

#### 4-rasm. Temir miqdori bir xil ( $1,2 \cdot 10^{-2}$ m.%) bo'lgan $\gamma$ -nurlangan (doza $10^6$ ) silikat shishalarining EPR spektrlarining umumiy ko'rinishi

5-rasmda  $5\text{Na}_2\text{O}-20\text{K}_2\text{O}-25\text{Al}_2\text{O}_3-50\text{GeO}_2$  va  $20\text{Na}_2\text{O}-5\text{K}_2\text{O} - 25\text{Ga}_2\text{O}_3-50\text{GeO}_2$  tarkibli ishqoriy-germanat shishalarining tipik EPR spektrlari ko'rsatilgan. Spektrlar murakkab bo'lib, bu yerda g-faktor qiymatlari 2,003; 2,010 va 2,027 ( $\Delta H=38 \text{ O}$ ); 2,001 va 1,998 ( $\Delta H=4 \text{ O}$ ) 1,994; 1,990 bo'lgan bir nechta radiatsiyaviy paramagnit markazlarining spektrlari bir-birlarining ustiga tushadi.  $g_{\perp}=2,001$  va  $g_{\parallel}=1,998$  signallari barcha o'rganilgan shisha tarkiblarida topilandi, ular adabiyotda  $E'_{\text{Ge}}$ -markazlariga, ya'ni uchkoordinatsiyalangan Ge atomlarida qamralgan elektronlar bilan izohlanadi. Ushbu signalning namoyon bo'lishii shishalari tarkibidagi  $\text{K}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{O}$  oksidlarining nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Tarkibida galliy oksidi  $\text{Ga}_2\text{O}_3$  doimiy bo'lgan shishalarda  $E'_{\text{Ge}}$ -markazlaridan tashqari, germaniy atomida joylashgan ko'prik bo'lmagan kislorod anomlari Ge –  $\dot{\text{O}}$  va peroksid radikallari Ge–O– $\dot{\text{O}}$  bilan bogliq 2,003, 2,010; 2,027 qiymatli paramagnit signallari ham aniqlanadi: peroksid radikallari oktaedr koordinatsiyada joylashgandir.



**5-rasm. Nurlantirilgan  $5\text{Na}_2\text{O}-20\text{K}_2\text{O}-25\text{Al}_2\text{O}_3-50\text{GeO}_2$  (1) va  $20\text{Na}_2\text{O}-5\text{K}_2\text{O}-25\text{Ga}_2\text{O}_3-50\text{GeO}_2$  (2) doimiy tarkibli alyuminiy va galliyli germanat shishalarining EPR spektrlari**

Biz olib brogan eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ishqoriy-silikat shishalari tarkibida  $\text{K}_2\text{O}$  oksidi konsentratsiyasining oshishi germanat shisha setkasining tarkibiy o'zgarishiga olibkeladi, buning natijasida oktaedrda joylashgan peroksidradikallarining EPR signalining amplitudasi ortadi va tetraeda joylashgan  $\text{E}'_{\text{Ge}}$ -markazlarining signali kamayadi (4-jadval).

#### 4-jadval

**Germaniyaning koordinatsiyasidagi o'zgarishlarning  $400^\circ\text{C}$  haroratda ion almashinuvi jarayoniga bog'liqligi**

Signal amplitudasi J, nis. bir.	Ishlov berish vaqti t, s.			
	0	24	48	72
Oktaedrik koordinatsiya	6,5	5,2	5,1	5
Tetraedrik koordinatsiya	10,5	14	15	16


Shunday qilib, EPR spektroskopiyasidan foydalanib, an'anaviy yuqori haroratli sintez natijasida va past haroratli ion almashinuvida olingan bir qator natriy-kaliy silikat shishalarda  $\text{K}_2\text{O}$  konsentratsiyasining oshishi bilan oktaedr koordinatsiyada  $\text{Fe}^{3+}$  miqdori ortadi. Aralastirilgan natriy-kaliyli shishalarda  $\text{Fe}^{3+}$  komplekslarining simmetriyasi bir turili ishqoriy oksidli shishalarga qaraganda pastroqdir.  $\text{Fe}^{3+}$  ionlarining EPR spektrlarini o'rganish ion almashinuvi jarayonida strukturani qayta tashkil etish jarayonlarining sodir bo'lishini baholashga imkon beradi.

To'rtinchi bobda "**Fosfat shishalarda ion almashinuv jarayonlari**" yuqori haroratli sintez natijasida olingan kumush qo'shimchalari bo'lgan an'anaviy fosfat shishalardagiga o'xshash ion almashinish usulida olingan fosfat shishalarida RPM hosil bo'lish ehtimolining eksperimental natijalari taqdim etilgan. Biroq bizning tadqiqotimizdan oldin, ionlari almashinadigan fosfat shishalarida radiatsiya

markazlarini, shu jumladan, kumushni o'z ichiga olgan markazlarni tizimli o'rganish amalga oshirilmagan.

Legirlanmagan namunalarning EPR spektrlarida  $PO_4^{2-}$  va  $PO_3^{2-}$  markazlari signallari aniqlandi (6-rasm, 1-egri chiziq). Shisha kumush bilan legirlanganda, yutilish spektrlarida bo'lgani kabi,  $PO_4^{2-}$  va  $PO_3^{2-}$  markazlari signal intensivligi faollashtiruvchi konsentratsiyasining oshishi bilan kamayadi. Bu spektrda  $Ag^0$  markazlari signali kuzatiladi, uning intensivligi kumush konsentratsiyasi ortishi bilan ortadi (6-rasm, 2 va 3-egri chiziqlar).

Bu fakt shuni ko'rsatadiki,  $Ag^+$  kirishmalari fosfat shishalarga kirganda,  $PO_4^{2-}$  va  $PO_3^{2-}$  markazlari bilan o'zaro ta'sirlashganda, ularga oz'larining kovaklarini beradi va  $Ag^0$  markazlarini hosil qiladi, EPR signallari  $PO_4^{2-}$  va  $PO_3^{2-}$  markazlari va yutilish signallarining intensivligi kamayadi hamda maksimumi 420 nm da yutilish chiziqlari paydo bo'ladi.



1-faollashtirilmagan; 2-an'anaviy yuqori haroratli sintezda kumush bilan faollashtirilgan; 3-PHIA usuli bilan faollashtirilgan

**6-rasm.  $T = 80\text{ K}$  da  $2 \cdot 10^5\text{ R}$  dozada nurlangan va  $300\text{ K}$  da qayd etilgan fosfat shishalarining EPR spektrlari**


Shishalarni issiqlik bilan ishlov berish jarayonida tadqiqotchilar energiyaning  $Ag^+-Ag^0$  lyuminessent markazlaridan kumush nanozarrachalarga o'tkazilishini aniqladilar, bu ilgari kuzatilgan uyg'otish va lyuminessent chiziqlari intensivligining yomonlashishi bilan birga, shuningdek, nanozarrachalarning sirt plazma rezonansi (SPR)ga mos keladigan to'liq uzunliklarida lyuminessent uyg'otish chizig'ining paydo bo'lishi 420 nm da uyg'otilganda olingan o'rganilayotgan shishaning lyuminessensiya spektrlari, 530 nm da lyuminessensiya polasasi mavjudligini ko'rsatdi. Shunday qilib, energiya uzatish jarayonining diagrammasini quyidagicha ifodalash mumkin: nanozarrachalar  $Ag \rightarrow Ag^+-Ag^0 \rightarrow Ag^+-Ag^+$ .

Fosfat shishasi asosida uzoq muddatli ta'sirga ega shishasimon granulalangan o'g'it ishlab chiqilgan. O'g'it fosfat shishasi asosida uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lgan shishasimon granulalangan o'g'it bo'lib, tarkibiga mol%da: fosfor

beshoksidi 20-80; kaltsiy oksidi 10-27; kaliy oksidi 7,5-31,5; alyuminiy oksidi 1-15; bor oksidi 0,50-5; sink oksidi 0,40-5; mis oksidi 0,30-5; kobalt oksidi 0,30-3 miqdorda kiritilgan.

“Ftorotsirkonat shishalar xususiyatlarini tekshirish” deb ataluvchi beshinchi bobda ishqoriy va ishqoriy bo‘lmagan ftorsirkonatli shishalardagi temir ionlarining holatini o‘rganish natijasida temir konsentratsiyasining keng o‘zgaruvchanligi ko‘rsatilgan. 1 mol % dan ortiq temir konsentratsiyasida temir ionlari samarali klasterlar hosil qiladi.  $Fe^{3+}$  ning EPR ma'lumotlariga ko‘ra, bu shishalardagi temirning asosiy qismi ikki valentli holatdadir.

EPR spektrlari 3 sm oraliqda JES – 3BS – X (JEOL) radiospektrometrida 300 va 77 K haroratda qayd etilgan.  $Fe^{3+}$  EPR liniyalarining nisbiy intensivligini baholashda kalibrlash uchun  $Al_2O_3: Cr$  rubin kristalli namunasi ishlatilgan.  $Fe^{3+}$  ko‘rib chiqilayotgan shishalarning oddiy EPR spektrlari 7-rasmda keltirilgan.



